

AVTOMATLASHTIRISHNING ISHLABCHI QARISHGA TA'SIRI

Boboqulov Temurbek Ro'zi o'g'li

Termiz davlat muhandislik va agrotekhnologiyalar universiteti
boboqulovtemurbek666@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ishlab chiqarishni avtomatlashtirishning iqtisodiy va texnologik ta'sirlari, samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va mahsulot sifatini yaxshilash kabi afzalliklari muhokama qilinadi.*

Avtomatlashtirishning ishchi kuchi va ekologik ta'sirga bo'lgan ta'siri, yangi texnologiyalarning ishlab chiqarishda qo'llanilishi hamda ularning raqobatbardoshlikni oshirishdagi roli tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, texnologik rivojlanish, samaradorlik, xarajatlarni kamaytirish, mahsulot sifati, raqobatbardoshlik, robototexnika, sun'iy intellekt, innovatsiyalar.*

KIRISH

Hozirgi kunda sanoat va ishlab chiqarish sohalari texnologik o'zgarishlarga duchkelmoqda, va bu o'zgarishlarning asosiy omillaridan biri ishlab chiqarishni avtomatlashtirishdir.

Avtomatlashtirish–bu ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash, robotizatsiya qilish yoki sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali avtomatik ravishda boshqarishdir.

Avtomatlashtirish texnologiyalari joriy etilgach, ishlab chiqarish jarayonlari ko'plab afzalliklarga ega bo'ldi: ularning samaradorligi oshdi, ishlab chiqarish xarajatlari kamaydi, sifat darajasi yaxshilandi va resurslardan samarali foydalanish imkoniyati yaratildi.

Avtomatlashtirishning ishlab chiqarishga ta'siri nafaqat texnologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ham sezilarli bo'ldi.

Bugungi kunda ishlab chiqarish sohasida avtomatlashtirishning joriy qilinishi haqiqatan ham global iqtisodiyotda yangi bosqichni boshlaydi va bu jarayonning natijalari ko'plab sohalarda o'zgarishlarga olib keladi.